

**RAQAMLI TRANSFORMASIYA SHAROITIDA YOSHLAR ILMIY
DUNYOQARASHNING SINERGETIK RIVOJI****Djurayev G'.R. -***Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

XXI asr insoniyat taraqqiyotida raqamli transformasiya davri sifatida namoyon bo'lmoqda. Axborot texnologiyalari, internet kommunikasiyasi, sun'iy intellekt, virtual platformalar va raqamli muhit inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Natijada iqtisodiyot, siyosat, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy munosabatlar bilan bir qatorda inson tafakkuri va bilish faoliyati ham sezilarli transformasiyaga uchramoqda. Ayniqsa, yoshlar ongida yuz berayotgan intellektual o'zgarishlar zamonaviy falsafiy tahlil uchun muhim ilmiy muammolardan biriga aylanmoqda. Bugungi yoshlar avvalgi avlodlardan farqli ravishda raqamli muhitda shakllanmoqda. Ularning bilish faoliyati internet, ijtimoiy tarmoqlar, multimedia axboroti, sun'iy intellekt tizimlari va global kommunikasiyalar bilan chambarchas bog'liqdir. Bunday sharoitda ilmiy dunyoqarashning shakllanishi ham an'anaviy ta'lim va klassik rasonalizm chegarasidan chiqib, murakkab va ko'p omilli jarayonga aylanmoqda.

Raqamli transformasiya yoshlar ongiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, axborot olish imkoniyatlari keskin kengaymoqda, ilmiy bilimlar global miqyosda tez tarqalmoqda, mustaqil izlanish va interaktiv ta'lim imkoniyatlari ortmoqda. Ikkinchi tomondan esa axborotning haddan tashqari ko'pligi, yuzaki bilim, fragmentar tafakkur, psevdofan va manipulyativ media ta'siri ham kuchaymoqda. Natijada yoshlar ilmiy dunyoqarashining shakllanishi murakkab va ziddiyatli jarayon sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur muammoni tushuntirishda sinergetik yondashuv alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Chunki sinergetika murakkab, ochiq, nochiziqli va o'z-o'zini tashkil etuvchi tizimlarning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Yoshlar ilmiy dunyoqarashi ham raqamli transformasiya sharoitida aynan shunday tizim sifatida shakllanmoqda. Unda tartib va kaos, an'anaviy bilim va yangi axborot, rasonallik va emotsional ta'sir, mustaqil fikrlash va algoritmik boshqaruv o'rtasidagi murakkab munosabatlar mavjud. Shu nuqtai nazardan mazkur maqolaning maqsadi raqamli transformasiya sharoitida yoshlar ilmiy dunyoqarashining sinergetik rivojini falsafiy-gnoseologik jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda yoshlar tafakkurining raqamli muhitdagi transformasiyasi, ilmiy bilishning yangi shakllari va sinergetik rivoj mexanizmlari o'rganiladi.

Ilmiy dunyoqarash va bilish faoliyati muammosi falsafa tarixida markaziy masalalardan biri bo'lib kelgan. Antik davr mutafakkirlari borliqni kosmos va tartib tushunchalari orqali izohlashga intilgan bo'lsalar, yangi davr falsafasida rasonalizm va ilmiy metod ustuvorlik qila boshladi. R. Dekart, F. Bekon va I. Kant ilmiy bilishning metodologik asoslarini ishlab chiqib, aql, tajriba va mantiqning ilmiy tafakkurdagi rolini asosladilar.

XX asrda fan taraqqiyoti natijasida klassik ilmiy paradigma inqirozga uchradi va postnklassik ilmiy tafakkur shakllandi. T. Kun ilmiy paradigmalar almashinuvi g'oyasini ilgari surib, ilmiy tafakkurning tarixiy va ijtimoiy xarakterga ega ekanligini ko'rsatdi[10]. K. Popper esa ilmiy bilimning tanqidiylik va inkor qilinish imkoniyati bilan bog'liqligini asoslab berdi[11].

Sinergetika nazariyasi G. Xaken tomonidan fanlararo metodologiya sifatida ishlab chiqildi. U murakkab tizimlarning o'z-o'zini tashkil etish qonuniyatlarini o'rganib, sinergetik paradigmmani zamonaviy ilmiy tafakkurning muhim yo'nalishiga aylantirdi[15]. I. Prigojin va I. Stengers dissipativ strukturalar nazariyasi orqali ochiq tizimlarda tartib va kaosning o'zaro bog'liqligini yoritdilar[12].

J. Glikning kaos nazariyasi haqidagi tadqiqotlari ilmiy tafakkurda nochiziqlilik va kutilmagan o'zgarishlarning ahamiyatini keng ochib berdi. Ushbu qarashlar yoshlar ilmiy dunyoqarashining raqamli muhitdagi rivojini tushuntirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi[8].

Raqamli jamiyat va axborotlashuv muammolari bo'yicha A. Toffler, M. Kastels, F. Kapra kabi olimlar zamonaviy texnologik transformasiyaning inson tafakkuriga ta'sirini o'rgandilar.

Ularning fikricha, raqamli muhit insonning bilish usullarini, ijtimoiy munosabatlarini va dunyoqarashini tubdan o'zgartirmoqda[1].

O'zbekistonda ham yoshlar ma'naviyati, ilmiy dunyoqarashi va axborot madaniyatiga oid tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, yoshlar ilmiy dunyoqarashining sinergetik rivoji aynan raqamli transformasiya sharoitida yetarli darajada falsafiy tahlil qilinmagan.

Mazkur tadqiqot ontologiya va gnoseologiya doirasida amalga oshirildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli-sinergetik yondashuv tashkil etdi. Ushbu metodologiya yoshlar ilmiy dunyoqarashini ochiq, murakkab va o'zgaruvchan tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Dialektik metod yordamida raqamli transformasiya jarayonidagi qarama-qarshiliklar tahlil qilindi. Xususan axborot ko'pligi va bilim chuqurligi, texnologik qulaylik va tafakkur yuzakiligi, global kommunikasiya va individual identiklik, ilmiy rasionallik va manipulyativ media ta'siri o'rtasidagi ziddiyatlar ilmiy dunyoqarash shakllanishiga ta'siri nuqtai nazaridan o'rganildi.

Tizimli metod yoshlar ilmiy dunyoqarashini turli omillar o'zaro ta'siri natijasida shakllanuvchi yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi. Yoshlar tafakkuri ta'lim, internet muhiti, ijtimoiy tarmoqlar, ilmiy manbalar, madaniyat va shaxsiy tajriba bilan o'zaro bog'liq holda rivojlanadi. Sinergetik metodologiya esa yoshlar ilmiy dunyoqarashidagi o'zgarishlarni nochiqlik rivojlanish jarayoni sifatida talqin qilish uchun qo'llanildi. Bu yondashuvga ko'ra, raqamli muhitdagi kichik axborotiy ta'sirlar ham yoshlar tafakkurida katta intellektual o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

Gnoseologik tahlil ilmiy bilim, axborot va psevdobilim o'rtasidagi farqlarni aniqlash uchun ishlatildi. Komparativ metod yordamida an'anaviy va raqamli davr ilmiy tafakkuri o'rtasidagi asosiy farqlar tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli transformasiya yoshlar ilmiy dunyoqarashining shakllanishiga tubdan ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli muhitda yoshlarning bilish faoliyati tezlashmoqda, axborot olish imkoniyatlari kengaymoqda va ilmiy bilimga kirish demokratlashmoqda. Biroq ushbu jarayon bir vaqtning o'zida murakkab va ziddiyatli xarakterga ham ega.

Birinchidan, raqamli transformasiya yoshlar tafakkurida bilimning tarmoqli xarakterini kuchaytirmoqda. An'anaviy ta'limda bilim ko'pincha ketma-ket va markazlashgan shaklda berilgan bo'lsa, raqamli muhitda bilim turli platformalar, manbalar va kommunikativ tarmoqlar orqali shakllanmoqda. Natijada yoshlar tafakkuri ko'proq ko'p manbali va interaktiv xarakter kasb etmoqda[2].

Ikkinchidan, yoshlar ilmiy dunyoqarashida interdisiplinar fikrlash kuchaymoqda. Internet va raqamli platformalar turli fanlar o'rtasidagi chegaralarni yumshatib yubormoqda. Masalan, sun'iy intellekt masalalarini tushunish uchun informatika bilan bir qatorda falsafa, etika, psixologiya va Sotsiologiya bilimlari ham zarur bo'lib qolmoqda. Bu esa yoshlar tafakkurida tizimli va kompleks yondashuvning shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Uchinchidan, sinergetik nuqtai nazardan yoshlar ilmiy dunyoqarashi ochiq tizim sifatida rivojlanmoqda. Raqamli muhitda yoshlar doimiy ravishda yangi axborotlar, qarashlar va kommunikativ ta'sirlar bilan to'qnash keladi. Bu esa ularning dunyoqarashida barqarorlik va o'zgaruvchanlikning birgalikda mavjud bo'lishiga olib keladi.

To'rtinchidan, tadqiqot yoshlar tafakkurida "raqamli fragmentarlik" fenomeni kuchayib borayotganini ko'rsatdi. Ijtimoiy tarmoqlar va qisqa axborot formatlari natijasida ayrim hollarda chuqur tahlildan ko'ra tezkor qabul qilish ustun kelmoqda. Bu esa ilmiy tafakkurning tizimlilik va izchillik xususiyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Beshinchidan, yoshlar ongida psevdobilim va manipulyativ axborot xavfi ortib bormoqda. Raqamli muhitda ilmiy ko'rinishga ega bo'lgan, biroq daliliy asosga ega bo'lmagan qarashlar keng tarqalmoqda. Natijada yoshlarning ilmiy tafakkuri bilan emotsional-media ta'sirlar o'rtasida ziddiyat yuzaga kelmoqda.

Oltinchidan, sinergetik rivoj nuqtai nazaridan yoshlar ilmiy dunyoqarashi o'z-o'zini tashkil etish xususiyatiga ega ekanligi aniqlandi. Yoshlar faqat tayyor bilimlarni qabul qilmaydi, balki turli axborotlarni solishtirib, qayta ishlab va mustaqil interpretasiya qilib yangi ma'no hosil qiladilar.

Shu sababli raqamli muhit yoshlarning ilmiy tafakkurini ham cheklashi, ham rivojlantirishi mumkin[3].

Yettinchidan, tadqiqot natijalari tanqidiy fikrlashning ahamiyati keskin ortayotganini ko'rsatdi. Raqamli transformasiya sharoitida ilmiy dunyoqarashning asosiy mezonlaridan biri axborotni tekshirish, dalillarni solishtirish va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatidir.

Sakkizinchidan, yoshlar tafakkurida "algoritmik ong" elementlari shakllanayotganligi kuzatilmoqda. Sun'iy intellekt va tavsiya algoritmlari insonning axborot tanlash jarayoniga faol aralashmoqda. Bu esa yoshlarning mustaqil tafakkuriga ham yangi imkoniyatlar, ham yangi xavflarni yuzaga keltirmoqda.

Raqamli transformasiya sharoitida yoshlar ilmiy dunyoqarashining rivoji haqidagi bahslar zamonaviy falsafaning eng dolzarb masalalaridan biridir. Ayrim tadqiqotchilar raqamli texnologiyalarni ilmiy tafakkur rivojining asosiy omili sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, internet va sun'iy intellekt bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirmoqda. Biroq boshqa tadqiqotchilar raqamli muhitning salbiy jihatlariga ham e'tibor qaratadilar. Ularning fikricha, tezkor axborot oqimi chuqur tafakkur o'rniga yuzaki va fragmentar fikrlashni kuchaytirishi mumkin. Ayniqsa, qisqa video formatlari va emotsional media kontent ilmiy tafakkurning izchil va analitik xarakteriga zid kelishi ehtimoli mavjud[4]. Mazkur masalada sinergetik yondashuv muhim metodologik ustunlikka ega. Chunki u raqamli transformasiyani bir yoqlama hodisa sifatida emas, balki murakkab va ziddiyatli rivojlanish jarayoni sifatida tushuntiradi. Sinergetik nuqtai nazardan raqamli muhitda tartib va xaos bir vaqtning o'zida mavjud bo'ladi. Ya'ni internet ham ilmiy tafakkurni rivojlantiruvchi global bilim maydoni, ham manipulyativ va psevdobilimlar tarqaluvchi muhit bo'lishi mumkin.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, yoshlar ilmiy dunyoqarashining barqaror rivoji uchun faqat texnologik vositalarning mavjudligi yetarli emas. Eng muhim omil — bu metodologik va tanqidiy tafakkurning rivojlanganligidir. Agar yosh inson axborotni tanqidiy tahlil qila olsa, dalil va manipulyatsiyani farqlay olsa, raqamli muhit ilmiy tafakkur rivojiga xizmat qiladi. Aks holda esa u fragmentar ong va emotsional fikrlashni kuchaytirishi mumkin[5].

Shuningdek, raqamli transformasiya sharoitida ta'lim tizimining roli ham o'zgarib bormoqda. Endilikda ta'limning vazifasi faqat tayyor bilim berish emas, balki yoshlarni mustaqil izlanishga, tanqidiy fikrlashga, axborot madaniyatiga, interdisiplinar yondashuvga, ilmiy metodologiyani tushunishga o'rgatishdan iborat bo'lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotning ayrim cheklangan jihatlari ham mavjud. Tadqiqot asosan nazariy-falsafiy xarakterga ega bo'lib, empirik monitoring va Sotsiologik tahlillar keng miqyosda amalga oshirilmadi. Shu sababli kelgusida yoshlarning raqamli muhitdagi bilish faoliyatini amaliy tadqiqotlar asosida chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi[6].

Raqamli transformasiya zamonaviy yoshlar ilmiy dunyoqarashining shakllanishiga chuqur ta'sir ko'rsatayotgan murakkab ijtimoiy-madaniy va gnoseologik jarayondir. Ushbu transformasiya natijasida yoshlarning bilish faoliyati tezlashmoqda, axborot manbalari kengaymoqda va ilmiy tafakkurning yangi shakllari yuzaga kelmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sinergetik yondashuv yoshlar ilmiy dunyoqarashining rivojini tushuntirishda samarali metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki yoshlar tafakkuri raqamli muhitda ochiq, dinamik, nochiziqli va o'z-o'zini tashkil etuvchi tizim sifatida rivojlanmoqda.

Umuman olganda, raqamli transformasiya yoshlar ilmiy dunyoqarashini nafaqat o'zgartirmoqda, balki uni yangi ontologik va gnoseologik bosqichga olib chiqmoqda. Ana shu jarayonni chuqur tushunish va metodologik jihatdan boshqarish zamonaviy falsafaning muhim vazifalaridan biridir.

ADABIYOTLAR:

1. Capra F. The Web of Life: A New Scientific Understanding of Living Systems. – New York: Anchor Books, 1996. – 375 p.
2. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 1996. – 625 c.

3. Nazarov Q. Bilish falsafasi. – Toshkent: Universitet, 2005. – 348 b.
4. Tulenov J., Tulenova G., Tulenova K. Falsafa. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016. – 344 b.
5. Берталанфи Л. фон. Общая теория систем. – Москва: Наука, 1969. – 178 с.
6. Вознюк А.В. Синергетические основания в системе философских знаний. – Житомир: Изд. ОИСЗ, 2007. – 63 с.
7. Волкова В.Н., Емельянов А.А. Теория систем и системный анализ в управлении организациями: справочник. – Москва: Финансы и статистика, 2006. – 848 с.
8. Глик Дж. Хаос: создание новой науки. – СПб.: Амфора, 2001. – 236 с.
9. Декарт Р. Рассуждение о методе. – Москва: Академический проект, 2011. – 655 с.
10. Кун Т. Структура научных революций. – Москва: АСТ, 2003. – 602 с.
11. Поппер К. Логика и рост научного знания. – Москва: Прогресс, 1983. – 302 с.
12. Пригожин И., Стенгерс И. Порядок из хаоса. – Москва: Прогресс, 1986. – 469 с.
13. Стёпин В.С. Теоретическое знание. – Москва: Прогресс-Традиция, 2000. – 393 с.
14. Тоффлер Э. Третья волна. – Москва: АСТ, 2004. – 345 с.
15. Хакен Г. Синергетика. – Москва: Мир, 1980. – 197 с.

RESUME:

Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida yoshlar ilmiy dunyoqarashining sinergetik rivoji falsafiy-ontologik va gnoseologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, ilmiy dunyoqarash, sinergetika, yoshlar tafakkuri.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируется синергетическое развитие научного мировоззрения молодёжи в условиях цифровой трансформации с философско-онтологической и гносеологической точек зрения.

Ключевые слова: цифровая трансформация, научное мировоззрение, синергетика, мышление молодёжи.

RESUME:

This article analyzes the synergetic development of the scientific worldview of youth in the context of digital transformation from philosophical-ontological and epistemological perspectives.

Keywords: digital transformation, scientific worldview, synergetics, youth thinking.